



## BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI METODIK TAYYORLASHDA WEB TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

*Ergashev Baxtiyor Baxriddinovich*

*Guliston davlat universiteti, Axborot texnologiyalari kafedrası o‘qituvchisi*

**Abstract.** The article describes recommendations for replacing web technologies in the methodological training of future computer science teachers. The issues of training competent, competitive personnel capable of using web technologies in their professional activities are considered.

**Keywords:** computer science, information and communication technologies, web technologies, future teacher, Web 2.0 and Web 3.0 technologies.

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini metodik tayyorlashda web texnologiyalarning o‘rniga oid tavsiyalar bayon qilingan. Kasbiy faoliyatda Web texnologiyalardan foydalanishga qodir, kompetentli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash haqida mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** informatika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Web texnologiyalar, bo‘lajak o‘qituvchi, Web 2.0 va Web 3.0 texnologiyalar.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori texnologik, ta’limiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, YuNESKO hujjatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan Web texnologiyalar ta’lim olish uchun zamonaviy texnologiya sifatida xizmat qilishi mumkinligi, bunda Web texnologiyalar o‘quv jarayoniga oqilona joriy etilgan bo‘lishi va yangi ta’lim modellari bilan birga qo‘llanishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Kasbiy faoliyatda Web texnologiyalardan foydalanishga qodir, kompetentli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, oliy ta’lim muassasalarida zamon talablariga mos ta’lim tizimini yaratish, fanlarni o‘qitishning mavjud shakl, metod, vositalari qatoriga Web texnologiyalarni kiritish va ulardan samarali foydalanish metodikasini yaratish, Web texnologiyalarni qo‘llash kompetentligi tarkiblarini aniqlash, uning shart-sharoitlari, mazmunini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.



Mamlakatimizda ham ta'lim tizimida Web texnologiyalardan foydalanish, jamiyatni axborotlashtirish, ta'limni internetlashtirish, Internet texnologiyalarini rivojlantirish, Web 2.0 va Web 3.0 texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xorijiy tajribalarni o'rganish jarayonida tadqiqotchi I.Rozinaning tadqiqotlarini alohida ajratib keltirish mumkin. Uning tadqiqot ishlarida "informatika ta'limini internetlashtirish" tushunchasini ta'lim jarayonida Web 2.0 va Web 3.0 xizmatlarining qo'llanilishi bilan izohlaydi [1]. Web 2.0 va Web 3.0 xizmatlarining rang-barangligi informatika ta'limini mazkur texnologiyalar vositasida reallashtirishning ko'p sonli variantlaridan birini tanlash imkoniyatini taqdim qiladi. Shu tariqa bugungi kunda tarmoq pedagogik hamjamiyatlarining shakllanishi nihoyatda dolzarb bo'lib bormoqda. Ta'lim jarayonida Web-texnologiyalardan foydalanish bo'yicha E.Patarakin [2], M.Nimatulayev [3], T.Vezirov [4] kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida bir qator tasniflar berilgan.

Tadqiqotchilar fikrlarini taqqoslab o'rganish natijasida, Web texnologiyalarning ta'limdagi o'rni ko'p qirrali bo'lib, uni quyidagicha tasniflash mumkin:

- axborot, jumladan talabaga zarur bo'lgan o'quv materiallarini tez etkazib berish;
- ijtimoiylashuv, kommunikativ va axborot texnologiyalarini qo'llash kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi;
- shaxsiy qobiliyatlarni yuzaga chiqarish va rivojlantirish vositasi;
- ta'lim muhitining ochiqligini, adaptivligini ta'minlash.

Web texnologiyalar ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, u talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tanlashga imkoniyat beradi, hamkorlikda ishlash usullarni ta'minlashga, tajriba olish va almashish maqsadida turli ijtimoiy tarmoq jamoalarida qatnashish, shuningdek Web 2.0 va Web 3.0 xizmatlarining ko'p qismi ularni ta'lim tizimining deyarli barcha darajalarida qo'llash imkoniyatini beradi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida Web-texnologiyalardan foydalanish masalasini tadqiq etishda OTMning tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi davlat ta'lim standarti, o'quv rejasiga kiritilgan umumkasbiy va ixtisoslik



fanlari, ularning mazmuni, “Informatika o‘qitish metodikasi” kursining mazmuni, o‘qitish holati tahlil etildi va xorij adabiyotlari o‘rganildi.

“Informatika o‘qitish metodikasi” kursi doirasidagi ta’lim jarayonida kompyuter, Internet va intranet kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘rganiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etishga bog‘liq mashg‘ulotlarga alohida e’tibor berildi. Shuningdek, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kursida Internet va uning xizmatlari hamda masofaviy ta’lim texnologiyalari bilan bog‘liq barcha turdagi mashg‘ulotlar mazmuni o‘rganib chiqildi.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash ta’lim yo‘nalishlari o‘quv fanlari mazmunida Web texnologiyalar tushunchasi, uning imkoniyatlari, o‘quv jarayonida Web texnologiyalardan foydalanish metodikasi, metodik tayyorlash tizimida umumkasbiy va mutaxassislik fanlari mazmunida o‘z aksini topmaganligi aniqlandi.

Hozirgi vaqtda internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilim va ko‘nikmalari har bir o‘qituvchining axborot madaniyati tarkibiga kirishini e’tiborga olib, OTMda “Informatika o‘qitish metodikasi” kursini o‘rganish davomida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida Web texnologiyalarni qo‘llash kompetentligini shakllantirishga alohida e’tibor berish kerak.

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida Web texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida Web texnologiyalardan foydalanish holatining tahlili, mamlakatimiz va xorijda o‘rganilganligi haqidagi ma’lumotlar ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etildi hamda Web-texnologiyalar asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini metodik tayyorlash tizimini takomillashtirishning motivatsion, tarkibiy, o‘quv-metodik, tashkiliy hamda ta’lim natijalarini baholash omillari bilan belgilash mumkinligi tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqildi.

Web 2.0 va Web 3.0 texnologiyalarning bo‘lajak informatika o‘qituvchilari faoliyati mazmuniga ta’sirining quyidagi asosiy jihatlari ajratib berildi:

- Web 2.0 va Web 3.0 texnologiyalarning “Informatika o‘qitish metodikasi” kursi mazmuniga kirishi munosabati bilan bo‘lajak informatika o‘qituvchilari mavjud texnologiyalar sohasida etarlicha ilmiy, metodik va maxsus bilimlarni egallashi;



- bugungi kunda bir qator ta'limiy, metodik va ma'lumotli saytlarning yaratilganligi va o'quv jarayoniga joriy etilayotganligi tufayli bo'lajak informatika o'qituvchilari o'z kasbiy faoliyatlarida ulardan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- kunduzgi va masofali ta'lim rivojining zamonaviy tendentsiyalari bo'lajak informatika o'qituvchilari oldiga o'zining Web 2.0 va Web 3.0 texnologiyalariga asoslangan tarmoq ta'lim resurslarini yaratish usul va vositalariga oid malakalarga ega bo'lishi.

Ko'rsaib o'tilgan ushbu maqsadlarga erishish uchun pedagogika OTMning umumkasbiy fanlari, jumladan, "Informatika o'qitish metodikasi" kursi mazmuniga Web texnologiyalarning kiritilishi tavsiya etiladi. Bundan bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda Web texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini o'zlashtirishga bo'lgan zaruriyat bilan Web texnologiyalardan foydalanishga doir o'quv-uslubiy ishlanmalarining mavjud emasligi o'rtasidagi ziddiyatlar yuzaga keladi. Ushbu qarama-qarshilikni hal qilish uchun Web texnologiyalar sohasidagi ta'lim mazmuni va tuzilmasini asoslash hamda ushbu metodikaga mos keluvchi o'quv-uslubiy resurslarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak pedagog kadrlarni metodik tayyorlash tizimida Web texnologiyalarni qo'llash kompetentligini shakllantirish, taklif etilayotgan texnologiyani amalda qo'llash natijasida talabalar ta'lim tizimi rivojining xalqaro tendentsiyalarini, uning zamonaviy holatini va uni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Buning natijasida Web texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini loyihalash, Web texnologiyalarni o'quv, ilmiy-pedagogik faoliyatida qo'llash bo'yicha motivatsiyasini shakllantirish, masofali malaka oshirish, tarmoqli ta'lim resurslarini ishlab chiqish va qo'llash usullarini egallash, ta'lim jarayonini axborotlashtirish muammolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash kabi qobiliyatlarni o'z ichiga olgan metodik kompetentlikka ega bo'ladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Розина И. Н.. Теория и практика обучения педагогической коммуникации в образовательной информационно-коммуникационной среде: автореф.дис. ... док.пед.наук: – М., 2005. – 50 с.

2. Патаракин Е.Д. Социальные сервисы Web 2.0 в помощь учителю // Учебно-



методическое пособие. М.: 2007. - 64 с.

3. Ниматулаев М.М. Подготовка учителей информатики в педвузе к использованию Web-технологий в профессиональной деятельности: дисс. ...канд.пед.наук.:. – М., 2002. – 182 с.

4. Везиров Т.Т. Формирование профессиональных умений будущих учителей математики и информатики на основе Web-технологий: дисс.... канд.пед.наук. – Перм, 2014. – 194 с.

